

O'ZBEK MAQOM SAN'ATI TARIXI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI.

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat"

kafedrasi o'qituvchisi

Urinov Islombek Olimjon o'g'li

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

An'anaviy cholg'u yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Rayimova Zinnuraxon Rustamjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek maqom san'atining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari hamda musiqiy-nazariy asoslari yoritilgan. Maqomlarning Sharq mumtoz musiqiy madaniyatidagi o'rni, Shashmaqom va Xorazm maqomlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning maqom san'ati rivojiga qo'shgan hissasi ochib beriladi. Maqomlarning cholg'u va ashula bo'limlari, doira usullari, shakliy tuzilishi hamda badiiy-estetik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, mustaqillik yillarida maqom san'atini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: maqom san'ati, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, mumtoz musiqa, musiqiy risolalar, cholg'u va ashula, milliy meros.

Annotation: This article examines the historical roots, stages of formation, and theoretical foundations of Uzbek maqom art. It analyzes the role of maqom in Eastern classical musical culture, highlighting the distinctive features of Shashmaqom and Khorezm maqoms. The contributions of prominent scholars such as Abu Nasr al-Farabi,

Ibn Sina, Jami, and Alisher Navoi to the development of maqom art are also discussed. Particular attention is paid to the instrumental and vocal sections of maqoms, rhythmic structures, formal characteristics, and their artistic and aesthetic significance. In addition, the article explores contemporary state policies aimed at preserving and developing maqom art and its role in fostering national values among the younger generation.

Keywords: maqom art, Shashmaqom, Khorezm maqoms, classical music, musical treatises, instrumental and vocal performance, national heritage

Maqom san'ati o'z ildizlarini qadimgi Sharq musiqiy madaniyatidan oladi. Bu san'at turi IX-X asrlarda shakllana boshlagan bo'lib, O'rta Osiyodagi ko'plab madaniy markazlarda – Buxoro, Samarqand, Xiva, Xorazm, Termiz kabi shaharlarda yuksak darajada rivojlangan. Maqomlarning rivojida mashhur musiqashunos olimlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning hissasi beqiyosdir. Ularning risolalarida maqomlar haqida ilmiy izohlar, musiqiy nazariyalar va amaliy tavsiyalar berilgan. Qolavesa, o'zbek maqomlarida ashula va cholg'u uyg'unligi mujassam. O'zbek maqom san'ati asosan ikki yirik maktabga bo'linadi: Shashmaqom va Xorazm maqomlari. Shashmaqom Buxoro va Samarqand hududlarida shakllangan bo'lib, olti asosiy maqomni o'z ichiga olishi barchamizga ma'lum va mashhurdir: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq. Har bir maqom bir necha qismlardan iborat bo'lib, ashula va cholg'u qismlari uyg'unlashgan tarzda ijro etiladi. Xorazm maqomlari esa o'ziga xos uslubga ega bo'lib, unda asosan torli cholg'ular, dutor, gijjak va rubobdan keng foydalaniladi. Xususan, maqomlarda matnlar odatda klassik adabiyot namunalaridan – Navoiy, Jomiy, Hofiz, Sa'diy kabi shoirlarning g'azallari asosida tanlanadi. Bu esa maqomlarni faqat musiqiy emas, balki adabiy va falsafiy meros sifatida ham qadrlashga asos yaratadi. Bundan tashqari, maqom san'atining ma'naviy va estetik ahamiyati ham muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda milliy maqom san'atimizning mahalliy uslublari, asriy an'analari, qadriyatlariga tobora yuksak e'tibor berilayotgani tufayli qayta tirilmoqda. “Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini

ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘tib kelayotgan yosh avlodimizning onggi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatimizni safarbar etishimiz zarur”. Demak, maqom san’atiga xos ijro uslublarida mumtoz musiqiy na’munalarni tahlil qilish, o‘rganilayotgan davrning ikki musiqiy risolalari mohiyati, parda va usul xususiyatlari, shakllarining tadrijiy ko‘rinishi tadqiq etish, qolaversa yosh avlodni ma’naviyatiga ta’sir qiluvchi milliy qadriyatlar kesimida o‘zbek madaniyatida tutgan o‘rnini yoritishga imkon yaratdi.[1]

Milliy musiqiy merosimiz, jumladan milliy cholg‘u ijrochiligimiz tarixi ham eramizdan bir necha asr oldingi davrlarga borib taqaladi. Xalqimiz va millatimizning barcha rivojlanish davrlarida qo‘shiq bilan bir qatorda qalb qo‘riyu-ko‘ngil davosi sifatida bebaho ma’naviy ozuqa bo‘lib xizmat qilgan. Musiqa san’atimizning barcha turlarida bo‘lganidek, sozandalik san’atining o‘ziga xosliklarini saqlab qolish, rivojlantirish, yangicha tus berish borasida ustoz sozandalar qatorida iqtidorli ijrochilar tomonidan ham ma’lum izlanishlar olib borilmoqda.

XV asrda musiqa nazariyotchisi Zaynulobiddin Xusayniyning “qonuni”da maqomga quyidagicha ta’rif berilgan: “Sozning dastasiga bog‘lanilgan halqasimon to‘siqlar, ya’ni so‘zma-so‘z xalqalarni “Maqom” deydilar. Bundan ko‘rinadiki, maqom musiqa cholg‘ulari dastasiga bog‘lanadigan pardalardir. Xalqimizning musiqa boyliklari juda ham ko‘p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Oxangdar ajoyib kuylarimiz kishiga quvonch, hursandchilik bag‘ishlaydi, og‘ir damlarni yengil qiladi. U insonning olijanob fazilatlarini, xis va tuyg‘ularni ifodalab beruvchi kuchga ega. Maqomlar asrlar o‘tishi bilan yiriklashib bordi va ularning dastlabki o‘n ikki maqom shakli olti maqomga birlashtirildi[2].

Maqom atamasi arabcha so‘z bo‘lib istiqomat qiluvchi, turar joy degan ma’nosini anglatadi. Musiqada esa maqom musiqa cholg‘ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o‘rni ya’ni pardalaridir.

Maqomlar o‘z boshidan juda ko‘p zamonlarni kechirdi. Shu sababli “Shashmaqom”da O‘rta Osiyo xalqlari yashagan sharoit, tarixiy hodisalar o‘z izini

qoldirdi. Bu hodisalar maqom sho'balarining nomlarida ham o'z aksini topadi. Farg'ona vodiysi va boshqa joylarda ba'zi maqom yo'llarini xotin-qizlar ham sevib ijro etishi maqomlarning xalq ommasi oldida tutgan ahamiyatini ko'rsatib beradi. Shashmaqom hozirda bir qolibda o'zgarib, rivojlanib, boyib, bir avloddan ikkinchisiga o'tib takomillashib bormoqda. Hozirda bizda mavjud bo'lgan maqomlar bular:

1. Xorazm maqom yo'llari
2. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari
3. Buxoro "Shashmaqom"

Maqom namunalari turkumida doira usullarining har xil bo'lishi ularning shoxobchalari kuy tuzilishiga ham ta'sir etadi, rang-barangligini ta'minlaydi. Kuylarning ta'sir etish xususiyatlari ham butunlay o'zgarib ketadi, variantlar tarzidagi kuylart bir-biridan tubdan farq etadi. Turkumli cholg'u yo'llari, odatda, ufar qismlari bilan yakunlanadi. Shuni alohida ta'kidlash keraaki, maqom yo'llarining yuzaga kelishi o'tmishdagi bastakorlik an'analari bilan chambarchas bog'liq, uning mahsulidir. Bu maqom cholg'u namunalari maqom yo'llarining xalq orasida naqadar keng yoyilganligidan dalolat beradi hamda maqom yo'llarini targ'ib qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilib kelgan edi[3].

Shashmaqom san'at olida eng mukammal turkum asarlardan sanaladi. Maqom islom diniga bog'langan eng oliy san'at turidir. Biz Shashmaqomdek yirik turkumli asrlarga ega ekanimizdan faxlansak arziydi. Shashmaqom 250ga yaqin cholg'u va ashula yo'llarini o'z ichiga oladi. Maqomlar shu jumladan, shashmaqom masalasi musiqa madaniyatimiz tarixida juda kam o'rganilgan sohalarandir. Ularni o'rganish, nazariy tahlil qilish ishi esa, juda murakkab muammodir.

Shashmaqom yetuk sozanda va xonandalar tomonidan o'zbek va tojik tillarida ijro etilgan. Ashula yo'llarida mumtoz sharq shoirlari Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Zebunniso, Ogahiy va boshqalarning ishqiy-lirik, falsafiy, nasihotomuz, diniy mazmundagi g'azallari, shuningdek xalq she'riyati qo'llanilgan. Yetakchi cholg'u tanbur bo'lib maqomlar ushbu

cholgʻu orqali sozlangan. Shashmaqom fors-tojik va arabcha soʻzlarning brikmasi boʻlib “Olti maqom” degan maʼnoni bildiradi. Ulaning tarkibiga:

Buzruk (katta, ulugʻ)

Rost (rost soʻzlash)

Navo (kuy va ohang)

Dugoh (ikki parda, oʻrin joy)

Segoh (uch parda, oʻrin joy)

Iroq (mamlakat nomi) maqomlari kiradi.

Xususan ularning har biri yirik shakldagi turkumli asarlar boʻlib, yigirmatadan qirq beshtagacha katta va kichik hajmdagi maqom yoʻllarini tashkil etgan. Shashmaqomning rivojlanishi tarixiga ahamiyat bersak: XVIII asrlarda marosimlar, saroy baʼzimlari, harbiy yurishlar, tantana va xalq shodiyonalari, shoh saroylarida shohni ulugʻlash, tabriklash va maqtash sifatida kuylangan. Maqomlarning asli kelib chiqishi xalqdan ogʻizdan-ogʻizga oʻtib takomilashib hozirda bizga shashmaqom boʻlib yetib kelgan. Maʼlumki Shashmaqom XIX asrning oxirgi choragida notaga olingan boʻlsa-da, ilmiy asosda kam oʻrganilgan. Maqomlarni notalashtirish maqsadida shoir, olim mashxur bastakor Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Kamil Xorazmiy) Xorazm tanbur nota chizigʻini ixtiro etgan. Bu nota yozuv usuli maxsus tanbur uchun moʻljallangan boʻlib, uning 18 pardasiga moslanib 18 chiziq olinadi. Chiziqlarning ost va ustiga qoʻyiladigan yakka, qoʻshaloq va uchtalik nuqtalar esa, nohunak zarblarni ifodalaydi. Shakl jihatidan bir-biridan farqi boʻlmagan bu nuqtalar kuylarini tashkil etgan tovushlar uzunligini ifodalau olmaydi. Nota nuqtalarning uzun-qisqaligi esa, doira usulining zarblariga qarab belgilansa boʻladi. Kamil Xorazmiy “Rost maqomi”ni notaga olgan edi, uning bu ishini bastakorning oʻgʻli shoir Muhammad Rasul Mirzo davom ettiradi va qolgan hamma maqomlarni tanbur nota chizigʻiga yozib, oxriga yetkazadi.

1924-yildan boshlab Viktor Uspenskiy tomonidan hozirgi zamon nota tizimiga olib “Shest muzikalnix poem” nomi ostida nashr ettirilgn. 1959-1966 yillarda Akademik Yumus RAjabiy tomonidan olti jilddan iborat “Shashmaqom” kitobini nashr ettiradi. Undagi har bir asar xohu cholg‘u asar bo‘lsin, xoh u ashula bo‘lsin, umimiy qonun qoidadan tashqarida yaratilgan emas.

Maqom san’atiga 70-yillardan boshlangan ijtimoiy, ilmiy va ijodiy qiziqish 80-yillar o ‘tasiga kelib o ‘z qaynovining avj nuqtasiga yetdi. Sovet sharqining ayrim respublikalarida va Moskva, Leningradda bo ‘lib o ‘tgan anjumanlarda maqomlarni tadqiq etish ishlarining zarurligi dolzarb ilmiy masala sifatida oldinga surildi. Yangi tadqiqot, maqola, kitob, dissertatsiya, turli konferensiya va simpoziumlar aynan shu mavzuga bag ‘ishlandi. Bu jarayonda hatto musiqa madaniyatining boshqa qatlamlari bir muncha soyada qolgandek ham ko ‘rinadi.

Maqomlar uzoq vaqt mobaynida jiddiy va to ‘laqonli o ‘rganilmaganligi taajjubli holatdir. Negaki, musiqashunoslik nazariyasi bilan amaliyoti maqom san’atining jonli an’analari o ‘rtasida uzilish paydo bo ‘ldi. Ushbu monografiya muallifi ---- maqom borasida sovet davridagi milliy to ‘qnashuvlarning faol ishtirokchisi va shohi ---- zamonning bunday g ‘alati voqealari haqida hayratlanib gapiradi, san’at sohasidagi soxta siyosat o ‘yiniga mahliyo bo ‘lib, biz yonimizda yotgan xazinani ko ‘rmas edik, deb afsuslanadi[4].

Shuningdek maqomlar ikki guruhga bo‘linadi. Maqomlarning har biri “Mushkilot” nomli cholg‘u hamda “Nasr” nomli ashula bo‘limlaridan iborat.

MUSHKILOT - cholg‘u bo‘limi, ya’ni, “qiyinchilik “ degan ma’noni anglatadi. Mushkilot bo‘limi naqat cholg‘u-asboblari uchun moslashtirilgan. Ushbu bo‘limda: Tasnif, Tarj’ei, Gardun, Muhammas, Saqil qismlaridan iborat bo‘lib, an’anaga ko‘ra birin-ketin yaxlit tarzda yakkasoz yoki cholg‘u ansambli orqali ijro etilgan. Maqom cholg‘u yo‘llarining kuy tuzilishi murakkab bo‘lsa-da, o‘zlarining rang-barangligi, ohangdorligi bilan eshituvchini maftun etadi. Ular uchun xos bo‘lgan narsa shuki, har bir cholg‘u qismi

xona va bozgo‘ylardan tashkil topgan. “Xona” –“uy”, “Tuzilma”, musiqa istilohida kuyning o‘zgaruvchan va faol rivojlanuvchi bo‘lagidir. “Bozgo‘y”- fors tilidan olingan bo‘lib “qaytariq” deyiladi.

Nasr – ashula bo‘limi, ya’ni, “zafar”, “g‘alaba” degan ma’nolarni bildiradi. Shuningdek nasr bo‘limi ham ikki guruhga bo‘linadi: I guruh sho‘balari va II guruh sho‘balari. Nasr bo‘liming birinchi guruh sho‘balariga Saraxbor, Talqin, Nasr, Ufar va ularning taronalari kiradi. Har bir maqom turkumi Saraxbor bilan boshlanadi. Maqom ashula bo‘limining ikkinchi guruh sho‘balariga esa Savt va Mog‘ulcha usulida ijro etiladigan ashula yo‘llari kiradi. Ikkinchi guruh sho‘balari asosan besh qismli bo‘lib, biosh ashula yo‘lidan tashqari, shahobchalari – talqincha, qashqarcha, soqiynoma va ufar deb nomlanadi va bu nomli doira usullari jo‘rligida ijro etiladi.

Maqomlarni o‘rganar ekanmiz. Uning o‘ta mukammal darajada tuzilganligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Hozirgi kunda maqom san’atiga juda katta ahamiyat qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi “Maqom san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 940-sonli qarorida Farg‘ona, Xorazm va Buxoro viloyatlarida ixtisoslashtiriltirilgan maqom maktab-internatlari tashkil etish to‘g‘risida bir qator vazifalar belgilab o‘tilgan. Prezidentimizning 2023-yilning 22-dekabr kungi kengashining kengaytililgan yig‘ilishida ma’naviyat va ma’rifat sohasida 9 ta yo‘nalishda muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ularning beshinchi yo‘nalishi maqom va baxshichilik san’atini rivojlantirish. Maqom va baxshichilik, Katta ashula, atlas va adras kabi an’analarini davom ettiradigan maktablar yaratilishi haqida gapirib o‘tdi. Mustaqilligimiz sharofati bilan muntazam ravishda Xalqaro va Respublika miqyosida Yosh maqomchilar, Yoshmaqom ijrochilari tanlovlari o‘tkazib kelinmoqda.

Biz kelajak avlod maqomlarni mohirlik bilan o‘rganib kelajakda bu maqomlarni dunyo bo‘ylab jahonga tanitish va ularga maqomlarimizni o‘rgatish va kichik sayohatlar bilan maqom kechalari tashkil etish va bilimga chanqoq, maqom sevar, do‘stlarimizga o‘rgatish bu biz kelajak avlodning maqsadlaridan biri desak mumkin. Maqomlarimizni

mukammal darajada o‘rganish va ularni dunyoga tanitish bizning qo‘limizda ekanligidan juda ham xursandmiz. Maqomlarimizni jahon madaniyati uzra yuksak cho‘qqilarga ko‘tarish – biz kelajak avlodning qo‘lida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san’at. Xalqaro maqom san’ati anjumanlarining ochilish maromidagi nutqi.// xalq so‘zi, 2018. 7-sentyabr. №185 (7143) – 1-bet.
2. Is’hoq Rajabov “Maqomlar”. San’at nashriyoti, Toshkent, Mustaqillik maydoni, 64-bet
3. Is’hoq Rajabov. Maqom asoslari. Yangi asr avlodi, Toshkent 2019, 131-bet
4. Otanazar Matyoqubov. Maqomot. Musiqi, Toshkent 2004, 5-bet